ICHKI ISHLAR XODIMLARINING MALAKASINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY USLUBLARDAN FOYDALANISH

Qobilov Suxrob Raufovich

Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ichki ishlar organlari uchun yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda huquqiy ong va kasbiy madaniyatini yuksaltirish masalalari to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Kadr, professional, malaka, kasb, ta’lim, samara, xodim, huquq.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы повышения правосознания и профессиональной культуры при подготовке, переподготовке и повышении квалификации высококвалифицированных специалистов для органов внутренних дел.

Ключевые слова: Персонал, профессионал, квалификация, профессия, образование, эффективность, работник, право.

Abstract: This article deals with issues of raising legal awareness and professional culture in the training, retraining and upgrading of highly qualified specialists for internal affairs bodies.

Key words: Staff, professional, qualification, profession, education, efficiency, employee, right.

KIRISH

Respublikamizda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibot, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Mazkur islohotlarni tizimli davom ettirish va yuksak

natijalarga erishish uchun yuksak malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash, tanlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish dolzarb masallalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida keng jamoatchilik muhokamasi natijasida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan 7 ta ustuvor yo‘nalish, 100 ta maqsad va 398 ta amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbir (mexanizm)lardan iborat 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlandi. Mazkur tarixiy muhim va ustuvor hujjat barcha sohalarni yanada rivojlantirish bo‘yicha yo‘nalishlar va ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Jumladan: - inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

- huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish;

- huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadrqimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish;

- ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishlashga yo‘naltirish;

- qonuniylikni qat’iy ta’minlovchi, ochiq va adolatli prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish hamda “Qonun – ustuvor, jazo – muqarrar” tamoyilini bosh mezonga aylantirishkabi vazifalar.

ASOSIY QISM

Sir emaski, jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlash ichki ishlar organlarining xalqparvar malakali mutaxassis kadrlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Shu bois, ichki ishlar organlari uchun malakali yetuk professional kadrlarni tayyorlash va tizimli malakasini oshirib borish huquqiy demokratik davlat qurish bo‘yicha ko‘zlangan maqsadlarga erishishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan Ichki ishlar organlari uchun mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo‘yicha o‘sishini ta’minlash, shuningdek, kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish maqsadida “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5076-sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan, ilk marotaba Ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibiga uzluksiz o‘quv-karera jarayoni tizimi 2021 yil 1 sentabrdan e’tiboran joriy etilishi belgilandi. Ushbu hujjat bilan 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab, Ichki ishlar vazirligining Akademiyasida kadrlarni tayyorlash jarayoniga bakalavriat va magistraturani o‘z ichiga oluvchi ikki bosqichli oliy ta’lim tizimi joriy etilishi belgilandi. Bu borada Akademiyadagi ta’lim tizimi ichki ishlar organlari uchun kadrlarni maqsadli kasbiy tayyorlashga qaratilishi hamda birinchi kursdan boshlab mutaxassislik va yuridik fanlarni o‘qitish, jangovar va jismoniy jihatdan tayyorlash chuqurlashtirilgan holda amalga oshirilishi, IIV Akademiyasining magistratura dasturi bo‘yicha o‘qitish ichki ishlar organlarining rahbar kadrlarini tayyorlashga qaratiladi hamda ikkinchi darajadagi “tashkiliy-taktik boshqaruv” va birinchi darajadagi “tashkiliy-strategik boshqaruv” yo‘nalishlarida tashkil etilishi belgilandi. Bundan tashqari, mazkur qaror bilan Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutiga yuridik shaxs maqomi berilib, faoliyatining asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar:

ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha serjantlar tarkibi xodimlarini jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tashkil etish sohasida maxsus kasbiy tayyorlash;

ichki ishlar organlarining safdor va ofitserlar tarkibidagi lavozimlariga birinchi marta tayinlangan xodimlarni boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik bo‘yicha o‘quv dasturlari asosida o‘qitish; ichki ishlar organlarining barcha toifadagi xodimlarini innovatsion axborot va pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda, shu jumladan turdosh yo‘nalishdagi respublika oliy ta’lim muassasalari bazasida qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etishbelgilandi.

Muqaddam faoliyat yuritgan Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlari tugatilib, ularning shtat birliklari va moddiy-texnika bazasi Malaka oshirish institutiga o‘tkazildi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmatdan ajralmagan holda bevosita joylarda malakasini oshirishni ta’minlash maqsadida masofaviy va mobil sayyor kurslarni o‘tkazish amaliyotini joriy etish ham belgilandi. Shuningdek, Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetida 5 oylik dastur bo‘yicha ichki ishlar organlarining serjant tarkibidagi lavozimlariga nomzodlarni maxsus kasbiy tayyorlash amalga oshirilishi, kasbiy tayyorgarlik fakultetini tamomlagan xodimlarga “kichik serjant” maxsus unvoni hamda belgilangan namunadagi diplom berilishi huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutgan mazkur qarorning ijrosini ta’minlash yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2021 yil 27 avgustdagi “Ichki ishlar organlarida uzluksiz o‘quv-karera jarayoni tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi 310-sonli buyrug‘i qabul qilinib IIOlarida uzluksiz o‘quv-karera jarayoni tizimini tashkil etish mexanizmlari belgilab berildi. Shuningdek, mazkur hujjat bilan “Ichki ishlar organlarida uzluksiz o‘quvkarera jarayoni tizimi asosida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo‘lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim bu – ichki ishlar sohasi, desak, ayni haqiqat bo‘ladi” .

Yuqoridagi talablar asosida uzluksiz o‘quv-karera jarayoni tizimi asosida ichki ishlar organlari uchun kadrlarni tayyorlash quyidagi:

1) boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik;

2) maxsus kasbiy tayyorgarlik;

3) qayta tayyorlash;

4) malaka oshirish;

5) oliy ta’lim;

6) boshqaruv kadrlarini tayyorlash;

7) oliy ta’limdan keyingi ta’limda o‘qish;

8) xizmat, jangovar va jismoniy hamda ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarliklardan iboratligi belgilandi.

Yuqorida ta’kidlangan hujjatlar talabidan kelib chiqib IIV va uning bo‘linmalariga quyidagilarni samarali hal etish muhim vazifalar sifatida belgilandi:

- ichki ishlar organlari xodimlarining malakasiga qarab xizmat bo‘yicha o‘sishini ta’minlash, kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish;

- barcha toifadagi ichki ishlar organlari xodimlarining samarali xizmat o‘tashi va ularning xizmat martabasi oshishi uchun xizmatning butun muddati davomida uzluksiz ravishda tahsil olish va malaka oshirib borishiga erishish;

- doimiy ravishda ichki ishlar organlari xodimlarining xizmatdan ajralmagan holda bevosita joylarda malakasini oshirishni ta’minlash maqsadida masofaviy va mobil sayyor kurslarini o‘tkazib borish;

- an’anaviy malaka oshirish bilan bir qatorda kasbiy o‘qitishning uyg‘unlashgan, ish jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan shakllarini, kadrlar malakasini oshirishni belgilangan davriyligiga rioya qilingan holda ta’lim dasturlarini, bilim va

ko‘nikmalarni doimiy takomillashtirishdan iborat kredit-modul mexanizmini joriy qilish.

Shu bois, ichki ishlar organlariga yuksak huquqiy ongli va madaniyatli malakali mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish doimo davlatimiz va jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

XULOSA

Bugungi kunda mamlakatimizda ichki ishlar organlarini xalqchil professonal tuzilmaga aylantirish ya’ni uni fuqarolar, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan o‘zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlaydigan adolatli va xalqqa yaqin organga aylantirish dolzarb masala sanaladi. Buning uchun esa dastlab soha xodimlarining salohiyatini oshirish talab etiladi. Ichki ishlar organlarida kadrlarning salohiyatini oshirish sohada tub islohotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “Ozbekiston” nashriyoti, 2021. 67-bet.

2. “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi O‘RQ-407-son Qonuni / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 38 (746)-son, 2016 yil 26 sentabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 12.02.2021 yilda Ichki ishlar vazirligida o‘tkazilgan Hay’atining kengaytirilgan yig‘ilishi 8-sonli bayoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.04.2021 yildagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikkka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son qarori.